2026-yil
8-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK: 349.2:37

Qodirov Boburomon Bekmurodovich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

Bekmurodov Dilshod Boburomon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

PEDAGOG MAQOMINING YURIDIK TABIATI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogning huquqiy maqomi tushunchasi, uning yuridik tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Pedagogning maxsus huquq subyekti sifatidagi o‘rni, huquq va majburiyatlari, kasbiy mustaqilligi, ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlari hamda yuridik javobgarligi tadqiq etilgan. Shuningdek, pedagog huquqiy maqomining mehnat, ta’lim, konstitutsiyaviy, ma’muriy va ijtimoiy ta’minot huquqi normalari bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. 2024-yilda qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mazkur sohadagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot yakunida pedagogning huquqiy maqomiga mualliflik ta’rifi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, pedagogning huquqiy maqomi, maxsus huquq subyekti, pedagogik faoliyat, kasbiy mustaqillik, huquqiy kafolatlar, yuridik javobgarlik, ta’lim huquqi, mehnat huquqi.

ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА И ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО СТАТУСА ПЕДАГОГА

Аннотация. В статье анализируются понятие правового статуса педагога, его юридическая природа и специфические особенности. Рассматриваются права и обязанности педагога как специального субъекта права, его профессиональная независимость, социально-экономические гарантии и юридическая ответственность. Обосновывается комплексный характер правового статуса педагога, формируемого на основе норм трудового, образовательного, конституционного, административного права и права социального обеспечения. Особое внимание уделяется значению Закона Республики Узбекистан «О статусе педагога», принятого в 2024 году. В заключении предлагается авторское определение правового статуса педагога.

Ключевые слова: педагог, правовой статус педагога, специальный субъект права, педагогическая деятельность, профессиональная

независимость, правовые гарантии, юридическая ответственность, образовательное право, трудовое право.

THE LEGAL NATURE AND SPECIFIC FEATURES OF THE LEGAL STATUS OF A TEACHER

Abstract. This article examines the concept, legal nature, and specific features of the legal status of a teacher. It analyses the teacher as a special subject of law, focusing on professional rights and duties, professional independence, social and economic guarantees, and legal liability. The study substantiates the complex legal nature of the teacher's status, which is regulated by the norms of labour, education, constitutional, administrative, and social security law. Particular attention is paid to the significance of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Status of a Teacher", adopted in 2024. The article also proposes an author's definition of the legal status of a teacher.

Keywords: teacher, legal status of a teacher, special subject of law, pedagogical activity, professional independence, legal guarantees, legal liability, education law, labour law.

Kirish. Har qanday kasb insondan muayyan bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy kompetensiya va shaxsiy sifatlarni talab etadi. Kasbiy faoliyat nafaqat shaxsning moddiy ehtiyojlarini ta'minlash, balki uning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi o'rni va kasbiy mas'uliyatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, pedagoglik kasbi o'zining yuksak ijtimoiy ahamiyati, inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni va jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'siri bilan boshqa kasblardan ajralib turadi. Pedagog nafaqat ta'lim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlodning ma'naviy kamoloti, huquqiy ongi, dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va hayotiy qarashlarini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy subyektdir.

Ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning kasbiy bilim va ko'nikmalari, pedagogik mahorati, kasbiy mustaqilligi hamda uning huquqiy jihatdan qay darajada himoyalanganligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan pedagogning jamiyatdagi mavqei faqat uning kasbiy faoliyati bilan emas, balki ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun yaratilgan huquqiy shart-sharoitlar bilan ham belgilanadi. Pedagogning huquq va majburiyatlari, kasbiy vakolatlari, ijtimoiy kafolatlari, mehnat sharoitlari va yuridik javobgarligining aniq belgilanishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

Bugungi kunda "o'qituvchi" tushunchasi bilan bir qatorda "pedagog" atamasi ham keng qo'llaniladi. Mazkur tushuncha umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan bir qatorda akademik litseylar, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qamrab oladi. Shu jihatdan zamonaviy huquqiy yondashuvda pedagog nafaqat ta'lim beruvchi

xodim, balki muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil professional faoliyat subyekti sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Pedagogning kasbiy faoliyati inson shaxsining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli undan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, balki huquqiy va axloqiy mas’uliyat ham talab etiladi. Shu bilan birga, pedagog o‘z kasbiy vazifalarini samarali bajarishi uchun davlat tomonidan tegishli huquqiy kafolatlar va himoya mexanizmlari bilan ta’minlanishi lozim. Bu holat pedagogning huquqiy maqomini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev pedagoglarning jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratib, ta’lim-tarbiya sifati va yosh avlod kelajagi ko‘p jihatdan ustoz va pedagoglarning bilimi, iqtidoriga hamda jamiyatdagi mavqeiga bog‘liqligini ta’kidlagan [1]. Mazkur yondashuv pedagoglik kasbining nafaqat ta’lim tizimi, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda pedagoglarning huquqiy va ijtimoiy maqomini mustahkamlash, ularning kasbiy faoliyati uchun munosib shart-sharoitlar yaratish hamda pedagoglik kasbining nufuzini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda pedagoglarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish va huquqiy himoyasini kuchaytirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mazkur islohotlarning muhim natijalaridan biri 2024-yil 1-fevralda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bo‘ldi [2]. Ushbu Qonun pedagogning huquqlari, majburiyatlari, kasbiy faoliyati, ijtimoiy kafolatlari, kasbiy sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni yagona huquqiy asosda tartibga solishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Mazkur huquqiy asos pedagogning jamiyat va davlat oldidagi vazifalari bilan bir qatorda, uning kasbiy mustaqilligi va huquqiy himoyasini ta’minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ham belgilaydi. Shu sababli pedagogning huquqiy maqomini faqat huquq va majburiyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki uning kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi kompleks huquqiy institut sifatida baholash muhimdir.

Shu sababli pedagogning huquqiy maqomini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, uning yuridik tabiatini, tarkibiy elementlarini, maxsus huquq subyekti sifatidagi xususiyatlarini hamda huquqiy kafolatlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-huquqiy masalalardan biridir. Mazkur masalani chuqur o‘rganish pedagoglarning huquqiy himoyasini yanada takomillashtirish, ularning kasbiy mustaqilligini ta’minlash va ta’lim tizimining samaradorligini oshirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Pedagogning huquqiy maqomi qonunchilik hujjatlari va huquq nazariyasida mavjud

yondashuvlar asosida o‘rganildi. Mazkur metodlar orqali pedagogning huquqiy maqomining mazmuni, uning tarkibiy elementlari, yuridik tabiati va boshqa huquq subyektlarining maqomidan farqlanuvchi jihatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun hamda pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Shuningdek, huquqiy maqom, kasbiy faoliyat, maxsus huquq subyekti va pedagogik faoliyatning huquqiy kafolatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar ham tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida pedagogning umumiy huquqiy maqomi bilan maxsus kasbiy maqomi o‘rtasidagi farqlar, uning huquq va majburiyatlari, huquqiy kafolatlari hamda yuridik javobgarligi o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Tizimli yondashuv asosida pedagog maqomining alohida huquqiy elementlari yagona tizim sifatida tahlil qilinib, ularning o‘zaro ta’siri va huquqiy mexanizmlari o‘rganildi.

Qiyosiy-huquqiy va formal-yuridik tahlil usullari yordamida amaldagi qonunchilik normalarining mazmuni, pedagogning huquq va majburiyatlarini belgilash xususiyatlari hamda uning maxsus huquq subyekti sifatidagi o‘rni aniqlashtirildi. Mantiqiy tahlil usuli esa tadqiqot davomida ilgari surilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va pedagogning huquqiy maqomiga nisbatan mualliflik yondashuvini shakllantirish imkonini berdi.

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish bilan bir qatorda, pedagog maqomining nazariy va amaliy jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda baholashga e’tibor qaratildi. Shu asosda pedagogning huquqiy maqomi nafaqat uning huquq va majburiyatlari majmui, balki kasbiy mustaqillik, ijtimoiy kafolatlar, huquqiy himoya va yuridik javobgarlikni qamrab oluvchi kompleks huquqiy institut sifatida o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Pedagogning huquqiy maqomi tushunchasi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy maqom subyektning huquqlari, majburiyatlari, yuridik javobgarligi va ularni amalga oshirish kafolatlarini o‘z ichiga oluvchi kompleks huquqiy kategoriya sifatida qaraladi [5].

Huquqiy maqom ijtimoiy maqomdan farq qiladi. Ijtimoiy maqom shaxsning jamiyatdagi o‘rni, obro‘si va kasbiy nufuzi bilan bog‘liq bo‘lsa, huquqiy maqom davlat tomonidan belgilangan huquqiy normalar va kafolatlar asosida shakllanadi. Masalan, pedagogning jamiyatdagi nufuzi uning ijtimoiy maqomini ifodalasa, uning kasbiy huquqlari, majburiyatlari, mustaqilligi va huquqiy himoyasi huquqiy maqomining mazmunini tashkil etadi.

Huquq nazariyasida huquq subyektlarining barchasi bir xil maqomga ega emas. Umumiy huquq subyektlari bilan bir qatorda muayyan kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishi munosabati bilan maxsus huquq subyekti maqomiga ega shaxslar ham mavjud. Pedagog ana shunday maxsus huquq subyektlaridan biridir.

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, pedagog — ta’lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta’lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi, tegishli

ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir [2].

Mazkur ta'rif pedagogning huquqiy maqomi umumiy fuqarolik maqomidan tashqari maxsus kasbiy talablar bilan ham belgilanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Pedagogning maxsus huquq subyekti sifatidagi xususiyatlari. Pedagogning maxsus huquq subyekti sifatidagi maqomi bir necha muhim jihatlar bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, shaxsning pedagog sifatida faoliyat yuritishi uchun tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va qonunchilikda belgilangan talablarga javob berishi lozim [2]. Demak, pedagogning huquqiy maqomi faqat fuqaro sifatidagi umumiy maqomdan emas, balki maxsus kasbiy shartlarning bajarilishidan ham kelib chiqadi.

Ikkinchidan, pedagog davlatning ta'lim sohasidagi vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Konstitutsiyada kafolatlangan ta'lim olish huquqining amaliy ta'minlanishi ko'p jihatdan pedagoglarning samarali kasbiy faoliyatiga bog'liq [6].

Uchinchidan, pedagog faoliyati bir nechta huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Uning mehnat munosabatlari mehnat huquqi, ta'lim jarayonidagi faoliyati ta'lim huquqi, davlat organlari bilan ayrim munosabatlari ma'muriy huquq, ijtimoiy kafolatlari esa ijtimoiy ta'minot huquqi normalari bilan bog'liq [5]. Bu holat pedagog huquqiy maqomining kompleks huquqiy tabiatini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, pedagogning kasbiy faoliyati davlat tomonidan alohida huquqiy muhofaza qilinadi [2]. Pedagogning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishning oldini olish hamda kasbiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan kafolatlar uning maxsus huquqiy maqomini yanada mustahkamlaydi.

Pedagog huquqiy maqomining tarkibiy elementlari. Pedagogning huquqiy maqomini o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy elementlarga ajratish mumkin:

1. Pedagogning huquqlari. Bunga kasbiy faoliyatni amalga oshirish, ta'lim metodlarini tanlash, malakasini oshirish, munosib mehnat sharoitlariga ega bo'lish, kasbiy sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish kabi huquqlar kiradi [2].
2. Pedagogning majburiyatlari. Pedagog ta'lim standartlari va qonunchilik talablariga rioya qilishi, ta'lim oluvchilarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishi, ta'lim sifatini ta'minlashi hamda kasbiy etika normalariga amal qilishi lozim [2].
3. Huquqiy kafolatlar. Davlat tomonidan pedagoglarning huquqlarini amalga oshirish uchun yaratiladigan mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy kafolatlar ushbu elementning asosini tashkil etadi [2].
4. Yuridik javobgarlik. Pedagog qonunchilik va o'zining kasbiy majburiyatlarini buzgan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin [2].

Shunday qilib, pedagogning huquqiy maqomi faqat huquq va majburiyatlar yig'indisidan iborat emas, balki huquqlarni amalga oshirish kafolatlari, kasbiy

cheklovlar va javobgarlik mexanizmlarini ham qamrab oluvchi murakkab huquqiy tizimdir.

Pedagog huquqiy maqomining o‘ziga xos jihatlari. Pedagogning huquqiy maqomi boshqa kasb vakillarining maqomidan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi.

Avvalo, u ijtimoiy ahamiyatga ega huquqiy maqom hisoblanadi. Chunki pedagog faoliyati nafaqat alohida shaxsning, balki jamiyat va davlatning intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, pedagog huquqiy maqomi ommaviy va xususiy huquqiy munosabatlarning uyg‘unligi bilan tavsiflanadi. Pedagog mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodim sifatida xususiy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etsa, ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida ommaviy-huquqiy munosabatlarning ham subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, pedagog faoliyati yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy mas’uliyat bilan bog‘liq. Chunki pedagogning faoliyati inson shaxsining shakllanishi, ta’lim sifati va jamiyatning intellektual salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, pedagog maqomi uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyiliga asoslanadi. Zamonaviy ta’lim pedagogdan o‘z bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilab borishni, innovatsion va ilmiy yondashuvlarni egallashni talab qiladi.

Beshinchidan, pedagogning kasbiy faoliyati maxsus huquqiy kafolatlar bilan ta’minlanadi. Bunday kafolatlar uning munosib mehnat sharoitida ishlashi, ijtimoiy himoyasi, kasbiy mustaqilligi hamda sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan.

“O‘qituvchi” va “pedagog” tushunchalarining huquqiy jihati**.** Ilmiy adabiyotlarda “o‘qituvchi”, “pedagog”, “pedagog xodim”, “professor-o‘qituvchi” kabi tushunchalardan foydalaniladi. Norasmiy muomalada esa “ustoz”, “domla”, “muallim” kabi atamalar ham keng tarqalgan.

M.A. Lukashenko oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining maqomi masalasini tadqiq etar ekan, talabalarning pedagog va maktab o‘qituvchisi haqidagi tasavvurlarida muayyan farqlar mavjudligini qayd etadi [3]. Ye.V. Balatskiy esa talabalar orasida oliy ta’lim professorining kasbiy qiyofasi va mavqeiga nisbatan turlicha qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi [4].

Biroq huquqiy nuqtai nazardan ta’limning turli bosqichlarida faoliyat yurituvchi shaxslarni yagona umumiy tushuncha asosida ifodalash muhimdir. Shu jihatdan “pedagog” tushunchasi umumiy huquqiy kategoriya sifatida maktab, professional ta’lim va oliy ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshiruvchi tegishli shaxslarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagog maqomini huquqiy tartibga solishning zamonaviy bosqichi. O‘zbekistonda pedagogning huquqiy maqomini mustahkamlashning yangi bosqichi 2024-yilda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan bog‘liq. Ushbu huquqiy hujjat pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, kasbiy

erkinligi, ijtimoiy kafolatlari, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga oid munosabatlarni kompleks tarzda tartibga solishga xizmat qilmoqda [2].

Mazkur Qonunning qabul qilinishi pedagogning huquqiy maqomini alohida huquqiy tartibga solish obyekti sifatida shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi [2]. Shu bilan birga, pedagog maqomining mazmuni faqat bitta qonun bilan chegaralanmaydi. U Konstitutsiya, mehnat qonunchiligi, ta'lim to‘g‘risidagi qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi.

Shu sababli pedagogning huquqiy maqomini alohida huquq tarmog‘i doirasidagina emas, balki kompleks huquqiy institut sifatida tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Olib borilgan tahlil natijasida pedagogning huquqiy maqomi murakkab va ko‘p tarkibli huquqiy kategoriya ekanligi aniqlandi. U pedagogning huquq va erkinliklari, kasbiy majburiyatlari, vakolatlari, ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari, kasbiy cheklovlari hamda yuridik javobgarligini o‘z ichiga oladi. Mazkur elementlarning o‘zaro uyg‘unligi pedagogning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy shart-sharoitlarni shakllantiradi.

Pedagogning maxsus huquq subyekti sifatidagi maqomi uning kasbiy faoliyatiga qo‘yilgan maxsus talablar, ta'lim olish huquqini ta'minlashdagi ishtiroki, faoliyatining kompleks huquqiy tartibga solinishi va davlat tomonidan alohida huquqiy muhofaza qilinishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan pedagogning huquqiy maqomi boshqa mehnat munosabatlari subyektlarining umumiy maqomidan o‘zining kasbiy va ijtimoiy ahamiyati bilan farqlanadi.

Pedagog huquqiy maqomining kompleks xususiyati uning mehnat, ta'lim, konstitutsiyaviy, ma'muriy va ijtimoiy ta'minot huquqi normalari bilan uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Bu esa pedagog faoliyatini faqat mehnat munosabatlari doirasida emas, balki ta'lim jarayoni, davlat siyosati va jamiyat manfaatlari bilan bog‘liq kengroq huquqiy munosabatlar tizimida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Shuningdek, 2024-yilda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi pedagoglarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va ularning kasbiy faoliyatini aniq huquqiy asosda tartibga solishda muhim qadam bo‘ldi. Mazkur huquqiy asos pedagogning kasbiy mustaqilligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash hamda uning huquq va majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, pedagogning huquqiy maqomiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: pedagogning huquqiy maqomi — bu pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsning ta'lim sohasidagi huquqiy holatini belgilovchi huquqlar, erkinliklar, majburiyatlar, vakolatlar, ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlar, yuridik javobgarlik choralari hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlar yig‘indisidir.

Mazkur ta'rif pedagogning huquqiy maqomini oddiy huquq va majburiyatlar majmui sifatida emas, balki pedagog, ta'lim tashkiloti, davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi kompleks huquqiy institut sifatida baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogning huquqiy maqomini yanada takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy nufuzini mustahkamlash va ularning samarali faoliyati uchun barqaror huquqiy shart-sharoitlar yaratishning muhim omili hisoblanadi.

Kelgusida pedagoglarning huquqiy maqomini takomillashtirishda ularning kasbiy mustaqilligini kengaytirish, huquqiy kafolatlarning amaliy samaradorligini oshirish, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kuchaytirish hamda pedagogik faoliyatga noqonuniy aralashuvning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O'RQ-901-son.
3. Lukashenko M.A. Imidj prepodavatelya vuza: mneniya i prioritety studentov // Vysshee obrazovanie v Rossii. – 2019. – № 1.
4. Balatskiy Y.V. V poiskax akademicheskoy renty // Kapital strany. Federalnoe internet-izdanie. – 12.04.2014.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
7. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694